



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

# **BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

**No. 2**

## YOSHLARDA MEDIA IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI

*Hikmatov Sunnatillo Hafiz o'g'li*, Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish

(Ma'naviyat asoslari) yo 'nalishi 1-kurs magistri

[hikmatsafar30@gmail.com](mailto:hikmatsafar30@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlarda media immunitetni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari kompleks tarzda tahlil etiladi. Raqamli kommunikatsiya muhitining kengayishi va axborot oqimining intensivlashuvi sharoitida yoshlarning destruktiv, manipulyativ hamda feyk axborot ta'siriga tushib qolish xavfi ortib borayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda media immunitet tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari — mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur, axborotni verifikatsiya qilish ko'nikmalari tizimli yondashuv asosida ochib beriladi. Shuningdek, milliy va ilg'or xorijiy tajribalar komparativ tahlil qilinib, yoshlar ongida barqaror axborot madaniyatini shakllantirishning institutsional va pedagogik mexanizmlari asoslanadi. Tadqiqot natijalari yoshlarni axborot xurujlari va ideologik tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiluvchi samarali strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** media immunitet, mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur, axborot xavfsizligi, feyk axborot, axborotni verifikatsiya qilish, axborot madaniyati, raqamli kommunikatsiya

## THEORETICAL AND SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF DEVELOPING MEDIA IMMUNITY AMONG YOUTH

*Hikmatov Sunnatillo Hafiz o'g'li*, Bukhara State Pedagogical Institute

1st-year Master's student in

Teaching social and humanitarian

sciences (Fundamentals of Spirituality)

[hikmatsafar30@gmail.com](mailto:hikmatsafar30@gmail.com)

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of developing media immunity among youth. In the context of expanding digital communication environments and intensifying information flows, the increasing vulnerability of young people to destructive, manipulative, and fake information is scientifically substantiated. The study elaborates on the concept of media immunity, revealing its structural components—media literacy, critical thinking, and information verification skills—through a systematic approach. Furthermore, national and advanced international practices are comparatively analyzed to justify institutional and pedagogical mechanisms for fostering a sustainable information culture among youth. The findings of the research have significant scientific and practical value in developing effective strategies to protect young people from information attacks and ideological threats.

**Keywords:** media immunity, media literacy, critical thinking, information security, fake information, information verification, information culture, digital communication

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИАИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ

*Хикматов Суннатилло Хафиз оглы,*

Бухарский государственный педагогический

институт магистрант 1 курса направления

Преподавание социально-гуманитарных

наук (Основы духовности)

[hikmatsafar30@gmail.com](mailto:hikmatsafar30@gmail.com)

**Аннотация.** В данной статье комплексно анализируются теоретико-методологические основы формирования медиаиммунитета у молодежи. В условиях расширения цифровой коммуникационной среды и интенсификации информационных потоков научно обосновывается рост уязвимости молодежи к воздействию деструктивной, манипулятивной и фейковой информации. В исследовании раскрывается сущность понятия «медиаиммунитет», а также его структурные компоненты — медиаграмотность, критическое мышление и навыки верификации

информации — на основе системного подхода. Кроме того, проводится сравнительный анализ национального и передового зарубежного опыта, обосновываются институциональные и педагогические механизмы формирования устойчивой информационной культуры молодежи. Результаты исследования обладают научно-практической значимостью в разработке эффективных стратегий защиты молодежи от информационных атак и идеологических угроз.

**Ключевые слова:** медиаиммунитет, медиаграмотность, критическое мышление, информационная безопасность, фейковая информация, верификация информации, информационная культура, цифровая коммуникация

**KIRISH.** Axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan XXI asrda inson ongiga ta'sir ko'rsatish usullari tubdan o'zgardi. Endilikda mafkuraviy ta'sir vositalari an'anaviy shakllardan chiqib, raqamli platformalar orqali keng ko'lamda yoyilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan tekshirilmagan ma'lumotlar yoshlar ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv sharoitida axborot oqimining tezlashuvi yoshlar ongiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yosh avlodning axborotni qabul qilish usullarini tubdan o'zgartirdi. Yoshlar har kuni minglab media xabarlar bilan to'qnashib, ularning ishonchliligini baholashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat yoshlarda mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimizni turli zararli axborotlardan himoya qilish, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya va mustaqil fikrni shakllantirish eng muhim vazifalarimizdan biridir.”<sup>21</sup> Bu esa media immunitetni shakllantirishni nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy zarurat sifatida ko'rsatadi. Yoshlarda media immunitetni shakllantirishning nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, ilmiy yondashuvlarni chuqurlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zamon talabiga aylanib ulgurdi.

**Asosiy qism.** Media immunitet tushunchasi nisbatan yangi ilmiy kategoriya bo'lib, u mediasavodxonlik nazariyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Mediasavodxonlik dastlab ommaviy axborot vositalarini anglash va tahlil qilish qobiliyati sifatida shakllangan bo'lsa, hozirgi bosqichda u kengroq — axborot muhitida ongli yashash kompetensiyasiga aylangan.

Media immunitet quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

- 1) Kognitiv daraja ya'ni axborotni tushunish va tahlil qilish
- 2) Emosional daraja ya'ni axborotga hissiy reaksiyani boshqarish;
- 3) Xulq-atvor darajasi ya'ni asosida axborot qaror qabul qilish.

### **1) Kognitiv daraja ya'ni axborotni tushunish va tahlil qilish**

Kognitiv daraja shaxsning axborotni anglash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Bu daraja mediasavodxonlikning asosiy komponenti sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimi Gulnora Saidova mediasavodxonlik haqida quyidagicha ta'kidlaydi: “Mediasavodxonlik — bu shaxsning axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash orqali undan ongli foydalanish ko'nikmalarining majmuasidir.”<sup>22</sup> Mazkur fikr shuni ko'rsatadiki, media immunitetning kognitiv darajasi — bu oddiy bilim emas, balki tanqidiy tafakkur orqali axborotni filtrlash mexanizmidir. Kognitiv daraja media immunitetning asosiy poydevori bo'lib, shaxsning axborotni qabul qilish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu darajada inson turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshiradi, fakt va fikrni farqlaydi, manipulyativ yoki yolg'on axborotni aniqlashga harakat qiladi. Kognitiv immunitet rivojlangan shaxs media matnlarning yashirin ma'nolarini anglaydi, ularning maqsad va auditoriyaga ta'sir mexanizmlarini tushunadi. Natijada u axborotga nisbatan mustaqil fikr yurita oladi va ongli qarorlar qabul qiladi.

Yana bir muhim qarashni Nodira Karimova ilgari suradi: “Axborot makonida insonning mustaqil fikr yurita olishi uning manipulyativ ta'sirlarga qarshi tura olishining asosiy omilidir.”<sup>23</sup> Demak, kognitiv daraja: feyk axborotni aniqlash, propagandani tushunish, yashirin maqsadlarni anglash orqali namoyon bo'ladi. Misol uchun: Talaba ijtimoiy tarmoqda siyosiy yoki iqtisodiy xabarni ko'rdi. Kognitiv darajasi rivojlangan bo'lsa: U bir manbaga ishonib qolmaydi, rasmiy saytlar bilan solishtiradi, statistik

<sup>21</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil. — rasmiy nashr.

<sup>22</sup> Saidova G. Mediasavodxonlik asoslari. Toshkent: “Ma'naviyat”, 2018. — 45-bet.

<sup>23</sup> Karimova N. Axborot madaniyati va mediasavodxonlik. Toshkent, 2020. — 62-bet

ma'lumotlarni tekshiradi. Natijada noto'g'ri xulosa chiqarishdan himoyalanaadi va buzg'unchi g'oyaga ishonib, negativ kayfiyatga tushib xato qarorlar qabul qilishdan saqlanaadi.

## **2) Emosional daraja ya'ni axborotga hissiy reaksiyani boshqarish**

Emosional daraja shaxsning media kontentga nisbatan hissiy reaksiyalarini boshqarish qobiliyatini anglatadi. Bu daraja ayniqsa zamonaviy axborot urushlari sharoitida muhim. Baxtiyor To'rayev shunday yozadi: “Axborotning ta'sir kuchi ko'pincha uning mantiqiy asosidan ko'ra hissiy ta'sir mexanizmlariga bog'liq bo'ladi.”<sup>24</sup> Bu media manipulyatsiyasining asosiy vositasi — emotsiya ekanini ko'rsatadi. Ushbu daraja shaxsning axborotga nisbatan hissiy reaksiyalari bilan bog'liq. Media kontent ko'pincha qo'rquv, g'azab, hayrat yoki haddan tashqari qiziqish kabi kuchli emotsiyalarni uyg'otish orqali ta'sir ko'rsatadi. Emosional immunitet shakllangan shaxs bunday ta'sirlarga berilib ketmaydi, balki o'z hissiyotlarini nazorat qila oladi. U manipulyativ kontentning aynan hissiy bosim orqali ongga ta'sir qilishini anglab, muvozanatli munosabatni saqlaydi. Bu esa noto'g'ri xulosalar chiqarish yoki shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilishning oldini oladi.

Dilnoza Rasulova quyidagicha ta'kidlaydi: “Shaxsning axborotga nisbatan hissiy barqarorligi uning noto'g'ri axborot ta'siriga tushib qolmasligini ta'minlaydi.”<sup>25</sup>

Emosional daraja quyidagilarni o'z ichiga oladi: vahimali xabarlariga berilmaslik, provokatsion kontentga nisbatan sovuqqonlik, haddan tashqari “ideal hayot” kontentiga tanqidiy qarash. Bunga amaliy misol sifatida :Telegram yoki Instagram'da “favqulodda xavf”, “zudlik bilan ulashing” kabi xabarlar tarqaladi. Emosional immuniteti past inson: darhol vahimaga tushadi va ulashadi. Emosional immuniteti yuqori inson: hissiyotini nazorat qiladi, tekshiradi, keyin qaror qiladi

## **3) Xulq-atvor darajasi ya'ni asosida axborot qaror qabul qilish.**

Bu daraja media immunitetning amaliy ko'rinishi bo'lib, shaxsning real harakatlarida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi Sherzod Qudratov quyidagicha yozadi: “Axborotdan foydalanish madaniyati shaxsning uni tarqatishdagi mas'uliyati bilan belgilanaadi.”<sup>26</sup> Xulq-atvor darajasi media immunitetning amaliy ifodasi bo'lib, shaxsning real hayotdagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Bu darajada inson axborotni ongli ravishda tanlaydi, tekshirilmagan ma'lumotlarni tarqatmaydi, media muhitda etik me'yorlarga amal qiladi. Shuningdek, u zararli yoki manipulyativ kontentdan o'zini himoya qilish choralarini ko'radi (masalan, ishonchsiz manbalarni cheklash, faktcheking qilish). Xulq-atvor darajasining rivojlanganligi shaxsning axborot makonida mas'uliyatli ishtirok etishini va jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirishga hissa qo'shishini ta'minlaydi.

Tadqiqotchi Zuhra Ismoilova ta'kidlaydi: “Mediasavodli shaxs nafaqat axborotni anglaydi, balki uni jamiyat manfaatidan kelib chiqib to'g'ri qo'llaydi.”<sup>27</sup> Xulq-atvor darajasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: feyk xabarlarini tarqatmaslik, axborotni tekshirib ulashish, etik me'yorlarga amal qilish, kibexavfsizlik qoidalariga rioya qilish. Amaliy misol sifatida :Bir inson WhatsApp'da tasdiqlanmagan tibbiy maslahatni oldi: past daraja darhol boshqalarga yuboradi, yuqori daraja tekshiradi, shifokor manbasini izlaydi so'ng qaror qiladi.

Ushbu uch daraja o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi: kognitiv bilim hissiy barqarorlikni mustahkamlaydi, bu esa to'g'ri xulq-atvorni shakllantiradi. Shu tariqa media immunitet kompleks va tizimli hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda “media immunitet” bilan bog'liq bo'lgan “mafkuraviy immunitet” va “ma'naviy immunitet” tushunchalari Rasulov A.A., Mamajonov I.O. va Toshmamatova Sh. tomonidan chuqur o'rganilgan. Bu olimlar immunitetning biologik va ijtimoiy-g'oyaviy ma'nolari o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatib, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratdilar.

Biologik Immunitet- inson organizmini kasalliklardan himoya qiluvchi tabiiy mexanizm. Tashqi patogenlarga qarshi kurashish qobiliyati kabi, ijtimoiy-g'oyaviy immunitet ham zararli mafkuraga qarshi himoya vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy-G'oyaviy Immunitet- shaxsni zararli mafkuraviy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy va intellektual mexanizm. Bu immunitet yoshlarning mustaqil fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

<sup>24</sup> To'rayev B. Ommaviy kommunikatsiya va axborot xavfsizligi. Toshkent: “Fan”, 2019. — 88-bet.

<sup>25</sup> Rasulova D. Axborot psixologiyasi. Toshkent, 2021. — 51-bet.

<sup>26</sup> Qudratov Sh. Axborot huquqi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. — 73-bet.

<sup>27</sup> Ismoilova Z. Zamonaviy ta'limda mediasavodxonlik. Toshkent, 2019. — 39-bet.

Hozirgi davr mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun, oldin media immunitetni shakllantirishni talab etmoqda, chunki barcha foydali va zararli axbarotlar oqimi media orqali tarqalib yoshlarni g'oyaviy ta'sirlardan himoyalash dolzarblashmoqda. Media immunitet orqali dunyoqarashi rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan va o'z pozitsiyasini himoya qila olish ko'nikmalarini shakllangan insonni tarbiyalash lozim.

Media immunitetni shakllantirish uchun avvalo, "Media ta'lim" va "Mediasavodxonlik" darslari keng yo'lga qo'yilishi zarurdir. Bu tushunchalarni rus olimi A.V. Federov va ingliz olimi L. Masterman ilmiy asoslagan. Ular media ta'limini nafaqat bilim berish, balki yoshlarda axborotga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish jarayoni sifatida belgiladilar.

Xususan, Alexander Fedorov "Media ta'limni media matnlarni tanqidiy tahlil qilish, idrok etish va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida izohlaydi"<sup>28</sup>. Mazkur yondashuv media immunitetning kognitiv, emosional va xulq-atvor darajalarini qamrab oladi.

Shuningdek, Len Masterman media ta'limning asosiy maqsadini "Tanqidiy mustaqillikni shakllantirish"<sup>29</sup> deb belgilaydi. Bu esa shaxsning axborot ta'siriga berilmasdan, uni mustaqil baholash va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi. L. Mastermanning media ta'lim konsepsiyasi axborotga nisbatan tanqidiy mustaqillikni joriy etish tamoyiliga asoslanadi. Uning fikricha, media savodxonligi shaxsning axborotni nafaqat qabul qilish, balki uni sinchiklab tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu konsepsiya yoshlarni media manipulyatsiyalaridan himoya qilishda muhim nazariy poydevor yaratadi. Media ta'limi yoshlarni passiv iste'molchidan faol va tanqidiy fikrlovchi shaxsga aylantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil. — rasmiy nashr.
2. Saidova G. Mediasavodxonlik asoslari. Toshkent: "Ma'naviyat", 2018. — 45-bet.
3. Karimova N. Axborot madaniyati va mediasavodxonlik. Toshkent, 2020. — 62-bet
4. To'rayev B. Ommaviy kommunikatsiya va axborot xavfsizligi. Toshkent: "Fan", 2019. — 88-bet.
5. Rasulova D. Axborot psixologiyasi. Toshkent, 2021. — 51-bet.
6. Qudratov Sh. Axborot huquqi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. — 73-bet.
7. Ismoilova Z. Zamonaviy ta'limda mediasavodxonlik. Toshkent, 2019. — 39-bet.
8. Fedorov A. Media Education and Media Literacy: Experts' Opinions. – UNESCO, 2003. – P. 1–17.
9. Masterman L. Teaching the Media. – London, 1985. – P. 24.

<sup>28</sup> Fedorov A. Media Education and Media Literacy: Experts' Opinions. – UNESCO, 2003. – P. 1–17.

<sup>29</sup> Masterman L. Teaching the Media. – London, 1985. – P. 24.

|                                                                                                                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Hamroyev Saidjon Sanoyevich, Abdullayeva Yulduz Nabiyeвна</b> , Jamiyatda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy standartlari                                                                                | 284 |
| <b>Erkinov Ozodbek Aminovich</b> , Huquqiy va ijtimoiy davlatning nazariy asoslari hamda uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari                                                                                                 | 289 |
| <b>Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li</b> , Huquqiy ong va madaniyat – qonun ustuvorligining poydevori                                                                                                                             | 295 |
| <b>Yo'ldosheva Odinaxon Dilmurodjon qizi</b> , O'zbekistonda mehnat huquqining buzilishi: Holat va istiqbol                                                                                                                         | 299 |
| <b>Temirova Asila Sodiqovna</b> , Zamonaviy fan taraqqiyotida huquq ta'limini rivojlantirish tendensiyalari                                                                                                                         | 302 |
| <b>Ergashova Nargiza, Jamolova Tamara Normatovna</b> , Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi                                                                                                                                 | 307 |
| <b>Sulaymonbekov Suhaylbek Sobirbek o'g'li</b> , Professional ta'lim oluvchilarning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda huquqiy targ'ibotni tashkil etishning pedagogik mexanizmlari (iiv buxoro akademik litseyi misolida) | 311 |
| <b>Hikmatov Sunnatillo Hafiz o'g'li</b> , Yoshlarda media immunitetni shakllantirishning nazariy va ilmiy asoslari                                                                                                                  | 318 |
| <b>Каримов Джамшид Тулкин Угли</b> , Идеи гуманизма и нравственности в наследии Абдурахмона Джами                                                                                                                                   | 322 |
| <b>O'rinov O'tkirkbek Nodir o'g'li</b> , Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini baholashda innovatsion mezonlar va indikatorlar                                                                                               | 326 |

### Aniq va tabiiy fanlar

|                                                                                                                                                                                                                         |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>To'xtayeva Ferangis Furqat qizi</b> , Muhandislik grafikasi fanida elektron o'quv qo'llanma yaratishda 3d geogebra dan foydalanish                                                                                   | 330 |
| <b>Choriyeva Nilufar Akram qizi</b> , Fizik tafakkurni rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish usullari                                                                                                   | 334 |
| <b>Dilnoza Irkinovna Dadaboeva</b> , Kelajak muhandislar uchun cad va 3d vizualizatsiyalaridan foydalangan professional grafik tayyorlashning innovatsion usulini ishlab chiqish va tajribada sinab ko'rish             | 340 |
| <b>Hasanov Behzod Normurot o'g'li, Hamroyeva Dilnoza Tohir qizi</b> , Informatika ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy va milliy pedagogik tajribalar tahlil                                 | 349 |
| <b>Jo'rayev Ilhom Is'hoqovich</b> , Mobil texnologiyalar tarixi, rivojlanishi va istiqbollari                                                                                                                           | 354 |
| <b>Rakhmat Sindarov</b> , Research of the methodology for the development and implementation of a teaching and methodological complex for graphic training                                                              | 360 |
| <b>To'xtayeva Ferangis Furqat qizi</b> , Elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda Fliktop platformasidan foydalanishning metodik asoslari                                                                                 | 366 |
| <b>Ergashov Mansur Yarashovich, Raxmatilloeva Shahzoda Hikmat qizi</b> , “Azotning kislorodli birikmalari” mavzusini o'qitishda eksperimental yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini shakllantirish | 370 |